XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-42-152-9-123-K/22 Boyovut tumani hokimligi

2023-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash hamda daromadlar va xarajatlarning prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24, 25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 27-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat bujdeti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Sirdaryo viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/01-38/66-sonli xatiga asosan 2023-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash hamda mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash, shuningdek Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi VI-43-173-9-0-K/22-sonli qaroriga asosan, xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Boyovut tumanining mahalliy budjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 2-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq;

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi hamda xarajatlari ijrosi natijasidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonun bilan belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga asosan (bundan buyon – Qonun) tuman budjetini barqarorligini ta’minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

4. Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun haq to‘lash xarajatlari tuman moliya bo‘limlari tomonidan viloyat moliya bosh boshqarmasiga taqdim qilingan

talabnomalar asosida tuman mahalliy budjetlariga ajratib beriladi.

5. Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari sud qarorlari asosida tuman mahalliy budjeti orqali moliyalashtirib borilishi ta’minlansin.

6. Qonunning 6-moddasi bilan viloyat budjetidan 2023-yilgi tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 58.7 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman mahalliy budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun etarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda tuman mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

aylanmadan olinadigan soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat budjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yokilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va

g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

boshqa daromadlar 100 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkazilishi belgilangan.

9. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, tuman aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

10. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tuman va shaharlarning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 6-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyat va tuman mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

14. Tuman hokimligi tegishli budjetlarini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmat xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

15. Tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 (besh) foizdan ortiq

miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat moliya bosh boshqarmasiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

16. Tuman hokimligi tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tegishincha majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

17. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Yuldashov) zimmasiga yuklatilsin.

18. Qaror 2023-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **D.Uralova**

Xalq deputatlari Boyovut tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023 yil uchun Boyovut tumani bo'yicha mahalliy budjet daromadlarining

reja ko'rsatkichlari

№	Daromad turlari	Summa ming so'mda
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	8 672 952
2	Aylanmadan soliq	6 375 087
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	674 552
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	8 864 187
5	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	32 754
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 040 663
7	Ijara to'lovlari	219 711

8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	222 099
9	Yuridik shaxslarning yer solig’i	925 951
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 586 871
	JAMI	**33 614 827**
	Mobil aloqaga aksiz solig’i, alkogolga aksiz solig’i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o’tkazib beriladigan daromad	**21 866 550**
1	Alkogolga aksiz solig’i (shu jumladan pivo)	8 846 140
2	Mobil aloqaga aksiz solig’i	3 794 480
3	Tamaki mahsulotari uchun aksiz solig’i	9 225 930
	JAMI DAROMAD	**55 481 377**

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
2-ilova

Boyovut tuman mahalliy budjetining 2023 yil uchun tuman va shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so'mda

Hudud nomi	**Daromad ***	**Xarajat ****
JAMI	**55 481 377,0**	**113 352 544,0**
Boyovut tumani	55 481 377,0	113 352 544,0

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig’i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag’larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Boyovut tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023 yil uchun Boyovut tumani budjetidan hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag’larining umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

	Ko'rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, jami	**113 352 544**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**113 352 544**
	Zaxira jamg'armasi	**1 058 177**
	Bolali oilalarga va kam taminlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	**39 011 807**
	Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi	**6 476 687**
	Mahalliy byudjetda hokim yordamchilarining tavsiyasiga asosan mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	**1 039 727**
1	**Xalq ta'limi bo'limi**	**8 355 102**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 355 102
2	**Maktabgacha ta'lim bo'limi**	**10 709 644**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 709 644
3	**Davlat sanitariya epidemiaologiya va osoyishtalik markazi**	**2 465 026**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 465 026
4	**Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**4 027 412**
	shu jumladan:	
	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limini saqlash harajatlari	547 745
	Mahalla fuqarolar yig‘inlarini saqlash xarajatlari	3 479 667
5	**Madaniyat bo'limi**	**3 494 304**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 494 304
	Madaniyat bo’limi saqlash xarajatlari	*200 491*
	Boshka madaniy-ma’rifiy muassasalar va tadbirlar saqlash xarajatlari	*86 792*
	Madaniyat markazlari saqlash xarajatlari	*918 585*
	Bolalar musiqa va san’at maktabi saqlash xarajatlari	*1 814 175*
	Axborot kutubxona markazi saqlash xarajatlari	*474 261*

6	**Jismoniy tarbiya va sport bo'limi**	**6 607 231**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 607 231
7	**Qishloq xo’jaligi bo’limi**	**524 122**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	524 122
8	**Irrigatsiya bo’limi**	**1 322 485**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 322 485
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 180 929**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 180 929
	ichki yo‘llari	3 000 000
11	**Fermer xo’jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**767 473**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	767 473
12	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo’limi**	**1 397 586**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 397 586
13	**Moliya bo'limi**	**1 790 452**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 790 452
14	**Aholi bandligiga ko’maklashish markazi**	**869 424**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	869 424
13	**Yoshlar ishlari agentligi Boyovut tuman bo‘limi**	**3 607 276**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 607 276
14	**Oila va xotin qizlar bo‘limi**	**2 728 447**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 728 447
15	**Tuman hokimligi**	**54 505 631**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	54 505 631
	Tuman hokimligining saqlash xarajatlari	*2 716 688*

	Xalq qabulxonasining saqlash xarajatlari	*95 234*
	Xalq deputatlari kengashi kotibiyatining saqlash xarajatlari	*220 491*
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi saqlash xarajatlari	*3 776 943*
	Bolali oilalar va kam ta’minlangan oilalarga naqaqalar va kompensatsiyalar	*39 011 807*
	Ijtimoiy ko’nikma markazi saqlash xarajatlari	*90 787*
	Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi	*6 476 687*
	Mahalliy byudjetda hokim yordamchilarining tavsiyasiga asosan mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	*1 039 727*
	Zaxira jamg'armasi	*1 058 177*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2022 yildagi PQ-299-sonli qaroriga asosan ozodlikdan maxrum etish jazoni o‘tab bolgan fuqarolarga dastlabki itjtimoiy-moddiy yordam berish paketi	*19 090*

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
4-ilova

Boyovut tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so'mda

Tuman nomi	Tartibga soluvchi transfertlar miqdorlari
JAMI	**57 871 167,0**
shundan	
Boyovut tumani	57 871 167,0

Xalq deputatlari Boyovut tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
5-ilova

2023 yil uchun Boyovut tuman budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me‘yorlari

										(foiz hisobida)	
T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	Jismoniy shaxslarning mol mulklari ijaraja berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha dekloratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘anadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to’lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i
1	Boyovut tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so'mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (1 gektar uchun)
1	BUNYODKOR MFY	0,90	21 600
2	MIRISHKOR MFY	0,80	19 200
3	U.YUSUPOV MFY	0,90	21 600
4	BERUNIY MFY	1,00	24 000
5	IJODKOR MFY	1,00	24 000
6	MADANIYAT MFY	1,00	24 000
7	SOXIL MFY	1,00	24 000
8	MA'NAVIYAT MFY	1,00	24 000
9	NAVRO'Z MFY	1,00	24 000
10	FARHOD MFY	1,00	24 000
11	A.TEMUR MFY	0,90	21 600
12	DO'STLIK MFY	0,90	21 600
13	S.AYNIY MFY	0,90	21 600
14	YANGI BO'STON MFY	0,90	21 600
15	JO'LANGAR MFY	0,90	21 600
16	A.NAVOIY MFY	0,90	21 600
17	SARMICH MFY	0,90	21 600
18	SHIRIN MFY	1,00	24 000
19	ANORZOR MFY	1,00	24 000
20	BEKAT MFY	1,00	24 000
21	YANGI AVLOD MFY	1,00	24 000
22	KARAPCHI MFY	1,00	24 000
23	LAYLAKKO'L MFY	0,90	21 600
24	GULBOG' MFY	0,90	21 600
25	IFTIXOR MFY	0,80	19 200
26	TINCHLIK MFY	0,90	21 600
27	UCHTURGAN MFY	1,00	24 000
28	OLMAZOR MFY	0,90	21 600
29	SOVOTOBOD MFY	0,80	19 200
30	BOBOYURT MFY	0,90	21 600
31	ISTIKLOL MFY	0,90	21 600
32	MARKAZ MFY	0,90	21 600
33	MUQUMIY MFY	0,90	21 600
34	OZODLIK MFY	0,80	19 200
35	PAXTAKOR MFY	0,80	19 200
36	O'ZBEKISTON MFY	0,90	21 600
37	DARVOZAKIR MFY	0,80	19 200

38	NAVBAXOR MFY	0,80	19 200
39	ZIYOKOR MFY	0,80	19 200

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

			so'mda
T/p	**Hudud nomi**	**Koeffisient (0,7 dan 3 gacha)**	**Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (1 кv uchun)**
1	BUNYODKOR MFY	1,00	192,1
2	MIRISHKOR MFY	1,00	192,1
3	U.YUSUPOV MFY	1,00	192,1
4	BERUNIY MFY	1,10	211,3
5	IJODKOR MFY	1,10	211,3
6	MADANIYAT MFY	1,10	211,3
7	SOXIL MFY	1,10	211,3
8	MA'NAVIYAT MFY	1,10	211,3
9	NAVRO'Z MFY	1,10	211,3
10	FARHOD MFY	1,10	211,3
11	A.TEMUR MFY	0,90	172,9
12	DO'STLIK MFY	0,90	172,9
13	S.AYNIY MFY	0,90	172,9
14	YANGI BO'STON MFY	0,90	172,9
15	JO'LANGAR MFY	1,00	192,1
16	A.NAVOIY MFY	1,00	192,1
17	SARMICH MFY	1,00	192,1
18	SHIRIN MFY	1,10	211,3
19	ANORZOR MFY	1,00	192,1
20	BEKAT MFY	1,00	192,1
21	YANGI AVLOD MFY	1,10	211,3
22	KARAPCHI MFY	1,10	211,3
23	LAYLAKKO'L MFY	0,80	153,7
24	GULBOG' MFY	1,00	192,1
25	IFTIXOR MFY	1,00	192,1
26	TINCHLIK MFY	0,90	172,9
27	UCHTURGAN MFY	1,10	211,3
28	OLMAZOR MFY	1,00	192,1
29	SOVOTOBOD MFY	1,00	192,1
30	BOBOYURT MFY	1,10	211,3
31	ISTIKLOL MFY	1,00	192,1
32	MARKAZ MFY	0,90	172,9
33	MUQUMIY MFY	1,00	192,1
34	OZODLIK MFY	0,90	172,9
35	PAXTAKOR MFY	0,90	172,9

36	O’ZBEKISTON MFY	1,00	192,1
37	YANGI OBOD MFY	0,80	153,7
38	NAVBAXOR MFY	0,80	153,7
39	ZIYOKOR MFY	0,80	153,7

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-42-152-9-123-K/22-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo’yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

so'mda

T/p	Hudud nomi	Koeffisient (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2023-yil uchun (so'm)
1	Boyovut tumani	0,8	800 000,0